

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIK MASALALAR YECHISHNING AHAMIYATI VA ULARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Ahmedova Rahima Muzaffarovna

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

E-mail: rahimaahmedova2022@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugunki kundagi ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik masala yechishning ahamiyati va ularga qo‘yiladigan talablar Asoslangan matematik tushuncha va atamalarni o‘quvchilarga tushuntirib berish. O‘quvchilarga turli xil vaziyatlarda matematik bilim va ko‘nikmalarni qo‘llashga o‘rgatish.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, masalalar, fikrlash, arifmetik amal, ta‘limiy, imkoniyat.

ABSTRACT

In this article, the importance of solving mathematical problems of elementary school students in today’s educational process and the requirements for them. Teaching students to apply mathematical knowledge and skills in different situations.

Key words: primary class, problems, thinking, arithmetic operation, educational, opportunity.

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрывается значение решения математических задач учащимися начальных классов в современном учебном процессе и предъявляемые к ним требования. Обучение учащихся применению математических знаний и умений в различных ситуациях.

Ключевые слова: начальный класс, задачи, мышление, арифметическое действие, обучение, возможность.

Hozirgi paytda maktablarda boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo‘yicha bilimlar berish bilan birga ularga o‘rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo‘lishini ta‘minlash, ularni qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni kelgusida olingan

bilimlarni ongli hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo'llashlari uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish boshlang'ich matematik ta'limning asosiy vazifalariga aylanishi lozim. Ta'lim mazmuni va o'rganilayotgan tushunchalar mohiyatini ochib berishda o'zaro aloqadorlikda va o'quvchilar amaliy faoliyati tajribasi bilan qo'shgan holda o'qitish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Matematik masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur ham etib bo'lmaydi. Matematikada masalalar yechish nazariyasi amaliyotga tadbiiq qilishning muhim yo'lidir. Masalalar yechish boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi va o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degani so'z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan, uning qo'llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani yechish bilan amalga oshadi. Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. O'quvchilar hali o'qish malakasiga ega bo'lmagan dastlabki vaqtlarda ularni o'qituvchi o'qib beradigan masala matnini tinglashga shartning muhim elementlarini tovush chiqarib ajratishga o'rganish kerak. Shundan keyin masala shartini yaxshiroq o'zlashtirish maqsadida, har bir o'quvchi masala matnini tinglashi va masalani mustaqil o'qib chiqishi zarur. Buning uchun ularga masalani oldin ovoz chiqarmay o'qishni so'ngra esa tovush chiqarib ifodali o'qishni taklif qilish kerak. O'quvchilar yechilayotgan masalada nima ma'lum, nima noma'lumligini, masala shartidan nima kelib chiqishini, qanday arifmetik amallar yordamida qanday tartibda masala savoliga javob topish mumkinligini aniq va ravshan tushunishga o'rganishlari kerak. O'quvchilar har bir amalni nega tanlaganliklarini anglay olishlari, masala bo'yicha ifoda yoki tenglama tuzib olishlari, uni yecha olishlari, savolga javob berib yechimning to'g'riligini tekshirib olishlari lozim. Agar berilgan masala o'zining murakkabligi bilan sinfda yechilgan masalalarga mos yoki o'xshasa u holda o'quvchilarga taklif qilingan masalaning yechilish yo'lini mustaqil topishga o'rgatish kerak. Shu maqsadda o'quvchilar masalalar yechishga yaqinlashishning eng sodda umumiy usullarini egallashlari lozim.

Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. Masala mazmunini yaxshi tushunish uchun o'quvchilarning har biriga uning matnini eshittiribgina qolmay, balki uni mustaqil o'qib chiqishlari aytish ham kerak. Agar masala sharti bosh qotiradigan bo'lsa o'quvchilarga masala mazmunini mustaqil o'ylab ko'rishlari uchun bir-uch daqiqa vaqt berish maqsadga muvofiqdir. Masala matni ustida ishlaganda o'quvchilarning diqqat e'tiborini avvalo masala matnidagi har bir so'z va har bir son mazmuniga qaratish lozim. Masalada tasvirlanayotgan manzarani, joyni tasavvur qilishiga yordam berish kerak, masala matni ustida og'zaki ishlagandan

keyin masala mazmunini matematik atamalar tiliga o'tkazish va uning matematik tuzilishini qisqa yozuv (sxema, chizma, jadval) shakllarida ifodalash kerak. O'quvchilarda ikkinchi sinfda birinchi sinfdagi kabi yangi masalalar bilan tanishtirishda yoki murakkab masalarni yechishda to'la predmet ko'rsatmalikdan sekin-asta to'liq bo'lmagan ko'rsatmalikka o'tiladi. Masala sharti murakkab berilganlar orasidagi bog'lanishlarni tahlil qilish qiyin bo'lganda, shunigdek yangi tipdagi masalalarni yechishda qisqa yozishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sodda masalani yechishda amal tanlash masalasiga to'xtalib o'tamiz. Bu malaka 1-sinfdan shakllantirib boriladi, o'quvchilarni 2-sinfda shakllantirish yana davom ettiriladi. Sodda masalalarni arifmetik va algebrik usul bilan yechish mumkin. Sodda masala arifmetik usul bilan yechilganda ifoda tuzib uning qiymati topiladi.

Sodda va murakkab masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rejalashtirishning foydali vositasi bo'lib odatda o'z ichiga yashirin ma'nolarni oladi. Masala yechish orqali o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'lishadi.

- Masalani tinglash o'rganish va uni mustaqil o'qiy olish.
- Masalada ma'lumdan noma'lumni ajratish va mulohaza yuritish.
- Masalani qisqa yozish.
- Masala rejasini tuzish.
- Masala yechimini tekshira olish.

XULOSA

o'rinda shuni aytish mumkinki masalalarni yechish matematika o'qitishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalalarni yechmasdan matematika fanini o'zlashtirishni tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi masala yechar ekan uning fikrlashi dunyoqarashi kengayib boraveradi. Buning uchun esa o'quvchilarga mavzuga oid bilim, ko'nikma, malaka berish bilan bir qatorga kompetensiyalarni ular ongiga singdirib, u kelajakda shu bilimidan hayotga qaysi sohada foydalana olishini va o'quvchilarning biror sohaga bo'lgan qiziqishini aniqlab uni yana rivojlantirishimizni talab etadi. Ana shundagina bizning yurtimizda ham dasturchilar, olim va muhandislar soni ko'payadi. Shu o'rinda Davlatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev quyidagi fikrlarini misol keltirsak bo'ladi: "Dunyoda qobiliyatsiz bola bo'lmaydi, biz ana shu qobiliyatni ko'ra olishimiz, tahlil qilib yuksaltirishimiz va shu qatorda o'quvchilarimizning qobiliyatidan kelib chiqqan holda biror bir kasbga yoki hunarga yo'naltira olishimiz bizning eng asosiy vazifamizdir. shunday ekan o'quvchilarda boshlang'ich sinfdan ularning matematika sohasiga bolgan qiziqishlariga qobiliyatlariga alohida e'tibor qaratishimiz kerak hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. - 2017.
2. Ahmedov M., Mirzamuhamedova D. „Masalalar yechish metodikasi”
3. Jumayev M. E., Tadjieva Z. G‘. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” Toshkent, 2005 yil
4. <http://www.pedagog.uz>
5. <http://www.edu.uz>